



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th June, 2025

SIFATNI TEKShIRISHDA SIFAT TIZIMLARIGA O'TISH

Shertaylaqov G‘.M.,
dotsent JizPI

Ortiqqulov Javlon Jaxongir o‘g‘li,
1-kurs magistr JizPI

Annotatsiya

Sifatni boshqarish tizimi va fikriga minnatdorchilik uchun Yaponiyada Deming nomidagi milliy mukofot ta’sis etilgan. Yapon mutaxassislari birinchi modelda mahsulot sifatini yaxshilash bo‘yicha ishlarni tashkillashtirishga tizimli yondashish g‘oyasini ko‘radi va o‘z faoliyatlarida ishlab chiqib, foydalana boshlagan. Mamlakatimiz korxonalarida mehnat sifatining umumlashtirilgan koeffitsientini hisoblashda nafaqat ijobjiy kamchiliklarni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar, mehnat sifatiga o‘rnatilgan talablardan ortiq ishda ijobjiy natijalarni aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar ham hisobga olingan.

Аннотация

В знак признания системы менеджмента качества и ее идеи в Японии была учреждена Национальная премия имени Деминга. Японские специалисты впервые увидели в модели идею системного подхода к организации работ по повышению качества продукции и стали ее разрабатывать и использовать в своей деятельности. При расчете обобщенного коэффициента качества труда на предприятиях нашей страны учитывались не только показатели, характеризующие положительные недостатки, но и показатели, отражающие положительные результаты в работе, превышающие установленные требования к качеству труда.

Kalit so‘zlar: sifati, individual, psixik, axloqiy, sifat menejmenti, standartlar, o‘quv dasturlari, o‘quv-uslubiyotlar, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-ta’lim, ijtimoiy-muhandislik, infratuzilma.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com


27th June, 2025

Ключевые слова: качество образования, индивидуальный, ментальный, этический, менеджмент качества, стандарты, учебные планы, методы обучения, социально-экономический, научно-образовательный, социално-инженерный, инфраструктура.

Rivojlangan davlatlarda sifatni tekshirish to‘g‘risida eng ilk ma’lumotlar 1924-yilga oid bo‘lgan. Bunda “Bell telefon” kompaniyasining laboratoriyasida doktor V.A. Shyuxart sanoat mahsulotining sifatini tahlil qilish uchun statistik tekshirish kartasini birinchi bo‘lib qo‘llagan. V.A. Shyuxart 1931 yilda “Sanoat mahsulotini sifatini iqtisodiy tekshirish” nomli kitobini nashr etdi. Bu kitobda sifatni tekshirishning *iqtisodiy jabhalari* ko‘rib chiqilgan.

E. Deming oddiy statistik metodlarning nazariy asoslarini va E. Deming, Dj. Djuran jarayonni statistik tekshirish nazariy asoslari ustida ish olib borgan.

Sifatni yaxshilash bo‘yicha ishlar navbatini grafik usulda tasvirlashga urinishlar bo‘lgan. 1950 y. da statistik metodlar bo‘yicha amerika olimi va mutaxassisasi E. Deming yapon mutaxassislari uchun o‘tkazgan seminarida sifat tizimining modelini umumiy ko‘rinishda namoyish qildi (1 - rasm).



1 – rasm. Sifat tizimining birinchi modeli

E. Deming o‘z modelini quyidagicha tavsiflagan:

“Bu diagramma, menimcha, tushunish uchun juda oddiy, men uni to‘rt sektorga ajratilgan “G‘ildirak” ko‘rinishida yozdim. G‘ildirak “Mahsulot sifatiga oid fikrlar” va “Mahsulot sifati uchun mas’ullik sezgisi chizig‘i bo‘ylab g‘ildiraydi. Eng muhim shundaki, g‘ildirakning barcha to‘rt qismi bir-biri bilan bevosita



E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy**

Website: econfseries.com

27th June, 2025

bog‘langan bo‘lib, uning boshi va oxiri yo‘q. Aynan shu sababli ham men doira yasadim”.

Sifatni boshqarish tizimi va fikriga minnatdorchilik uchun Yaponiyada Deming nomidagi milliy mukofot ta’sis etilgan. Yapon mutaxassislari birinchi modelda mahsulot sifatini yaxshilash bo‘yicha ishlarni tashkillashtirishga tizimli yondashish g‘oyasini ko‘rdi, ta’kidladi va o‘z faoliyatlarida ishlab chiqib, foydalana boshladi. AQSh da ham shunday mukofot – Malcolm Boldridj nomidagi milliy mukofot, Sifat bo‘yicha Yevropa mukofoti, Rossiya Federatsiyasi Hukumatining mukofoti ta’sis etilgan.

O‘tgan asrning 80-yillarida sifatni rejorashtirish, sifatni oshirish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish masalalariga katta e’tibor bera boshlandi. AQShning sifatni boshqarish bo‘yicha mashhur mutaxassis professor Dj. Djuran fikricha, AQSh firmalari o‘zlarining sifat siyosatida asosiy diqqatni sifatni tekshirishga qaratdi, bu bilan, sifat tafsilotlarini “muzlatib” qo‘ydi, natijada sifat inqiroziga uchradi deb g‘oyalar bergan.

Dj. Djuran fikricha, sifatni rejorashtirish sifati ta’minalashdagi uchta muhim omil (rejorashtirish-tekshirish-sifatni oshirish)dan iborat bo‘lishi kerak. Bunda sifatni rejorashtirishda iste’molchining fikri asos bo‘ladi – faqat iste’molchi o‘ziga nima kerakligini yaxshi biladi. Dj. Djuranning aytishicha, iste’molchi buyum bilan birga uning ish imkoniyatlarini ham sotib oladi va aynan shu narsa iste’molchi uchun muhimdir. Agar bozor parketni yaltiratuvchi lakni taklif etsa, iste’molchi polartgich o‘rniga lak sotib oladi. Sifatni rejorashtirishda iste’molchilar doirasini o‘rnatish va ularning ehtiyojini aniqlash va bu asosda buyumning tafsilotlarini ishlab chiqish va bularni ta’minalash usullarini joriy qilish muhim masala bo‘ladi.

Dj. Djuran ta’kidlagan ediki, “*Bizga sifatni keng rejorashtirish va tekshirishda yagona yondashish yetishmaydi. Biz maqsadlarning birligi zarurligini sezmoqdamiz, “har kim o‘zi uchun” bo‘layotgan holat bizni tashvishga solmoqda...”*

Yagona rejorashtirishning yo‘qligiga aniq isbotlar bor va biz bunday holatdan qoniqmaymiz”.

Sifatni oshirishda va mahsulotni benuqson tayyorlash va uni buyurtmachiga birinchi taqdim qilishda Rossiyada Saratov tizimi Saratov samolyotsozlik zavodida 1955



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th June, 2025

yilda ishlab chiqildi va joriy etilgan. Bu tizim zavodda iqtisodchi rus olimi B.A. Dubovikovning bevosita ishtirokida yaratilgan.

Hisobot vaqtı smena, hafta, oy ichida mahsulotni birinchi taqdimdayoq topshirish foizi bilan tavsiflanadigan mehnat sifatini baholash tizimi asosida sifat ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$K = \frac{P_T}{N_T} \cdot 100\%, \quad (1)$$

bunda $P_T - T$ vaqt ichida birinchi taqdimdayoq TTB qabul qilgan mahsulot miqdori; $N_T - T$ vaqt ichida TTB ga taqdim etilgan mahsulot miqdori.

Bunda alohida ishchi, brigada, uchastka, sexning mehnat sifati baholangan, baho natijasi bo'yicha mukofot miqdori aniqlangan.

Saratov tizimini O'zbekistonning 24 xalq xo'jaligi tarmoqlari qo'llagan. Ayniqsa, bu tizim elektrotexnika, elektron va yengil sanoat korxonalarida samarali ishlagan. Masalan, Toshkent radiodetallar zavodida birinchi taqdimdayoq buyumlarning 99,5 foizi, "Toshkenkabel" elektron texnika, "Qizil Tong" tikuvchilik firmasida, Olmaliq mebel fabrikasida – 95 foizi TTB ga topshirilgan. Keyinchalik O'zbekiston korxonalari benuqson mehnat tizimiga o'tdi. Bu tizim Saratov tizimining "Lvov varianti" nomi bilan ma'lum bo'lib, Lvov telegraf apparatlari zavodida yaratilgan. BMT da mehnat sifatining asosiy ko'rsatkichi TTB ga va buyurtmachiga birinchi taqdimda topshirilgan mahsulot foizi emas, balki quyidagi formula bo'yicha aniqlanadigan mehnat sifatining umumlashtirilgan mezoni (K_{ms}) dan iborat:

$$\hat{E}_{i\tilde{n}} = \hat{E}_i - \sum_{1-n}^n \hat{E}_{\tilde{e}_i}, \quad (2)$$

bunda K_{ms} – mehnat sifati koeffitsienti;

K_o – mehnat sifati me'yori deb qabul qilingan va odatda birga teng koeffitsient;

n – mehnat sifati koeffitsientini pasaytirishda foydalanadigan ko'rsatkichlarning umumiyligi soni;

K_{ki} – mehnat sifatiga o'rnatilgan talablarni i – ko'rsatkich bo'yicha buzganligi uchun bahoni kamaytirish koeffitsienti.

Keyinchalik, mamlakatimiz korxonalarida mehnat sifatining umumlashtirilgan koeffitsientini hisoblashda nafaqat ijobjiy kamchiliklarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar,



E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy**

Website: econfseries.com

27th June, 2025

balki mehnat sifatiga o‘rnatilgan talablardan ortiq ishda ijobiy natijalarni aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar ham hisobga olina boshladi. Bu holda:

$$\hat{E}_{i\tilde{n}} = \hat{E}_i + \sum_{m=1}^m \hat{E}_{ni} + \sum_{i=1}^n \hat{E}_{ei}, \quad (3)$$

bunda m – mehnat sifati koeffitsientini oshirishda foydalaniladigan ko‘rsatkichlarning umumiy soni;

K_{ni} – mehnat sifatiga o‘rnatilgan talablardan oshganlik uchun bahoni oshirish koeffitsienti.

Bunda mehnat sifati koeffitsienti birdan katta bo‘lishi mumkin.

Benuqson mehnat metodiga o‘tish, odatda, ishlab chiqarish-texnik bazani takomillashtirishni talab qiladi.

Qo‘qon superfosfat zavodida superfosfatni omborda saqlamasdan yetiltirish yangi texnologik sxemasi joriy etildi, tebranma elak takomillashtirildi, quritish barabanlarining issiqlik rejimini avtomatlashdirish o‘g‘itlarni namligi 3 % dan oshmaydigan qilib chiqarishga imkon berdi. “Toshkentkabel” zavodida asosiy texnologik, tekshirish-o‘lchash va sinash uskunalari tartibga tushirildi, MARS-200 turdagи issiqlik rejimlarini avtomatik rostlash mashinalari ishga tushirildi va yengil sanoat korxonalarida ham ishlab chiqarish bazasi takomillashtirilgan.

Sifat tizimi ishlagan sharoitlarda tekshirish, hisobga olish, tahlil, kadrlar tayyorlash tizimlari qayta tashkillashtirildi va takomillashtirildi. Sifat mifikatlari, sifat kunlari keng ko‘lamda o‘z samarasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismatullaev P.R., Maksudov A.N., Abdullaev A.X., Axmedov B.M., A’zamov A.A. Metrologiya standartlashtirish va sertifikatlashtirish. «O‘zbekiston» Toshkent-2001y.
2. Abduvaliev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Alimov M.N., Boyko S.R., Xakimov O.Sh., Xvan V.I. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, SMSITI, 2008 y.